

FALSAFADA AXLOQ MASALASI

Kakishova Gulzada Gurbangilichevna*Qaraqalpoq davlat Universiteti Tarix**fakulteti Falsafa yonalishi*

Annotatsiya: *Barcha fanlar ibtidosi falsafadir. Qadimdan ilmiy qarashlar falsafiy deya yuritilib, keyinchalik alohida fanlar shakillandi. Bugungi kunda falsafa bir necha yo'nalishlarga bo'lib tadqiq etilmoqda va biz maqolamizda esa falsafaning axloq masalasini ko'rib chiqamiz.*

Kalit so'zlar: *konfutsiylik, markaziy osiyo mutafakkirlari, utilitarizim, deontologiya, virtnoz*

Tarbiya ta'limning boshidir. Bu borada allomalarimiz alohida to'xtalib o'tishgan va kitoblar yozib qoldirishgan. Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi darsligi "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "axloq" so'ziga shunday ta'rif berilgan: "Axloq – insonni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladurgan kitobni axloq deyilar".

Axloq ijtimoiy faoliyatni tartibga solishning boshqa shakllaridan o'z talablarining asoslanishi bilan farq qiladi. Axloqda ijtimoiy zaruriyat, ehtiyoj, jamiyatning yoki guruhlarining manfaatlari o'ziga xos ravishda shakllangan va hamma qabul qilgan, ommaviy namuna, odat, rasm -tamoil, jamoatchilik fikrining kuchi bilan mustahkamlangan qoidalar, me'yorlar va baholar tarzida ifodalanadi. Shuning uchun axloq talablari hammaga babbaravar qaratilgan va lekin hech kimning buyrug'i bilan joriy etilmagan shaxssiz burch shakliga kiradi. Bu talablar nisbatan barqaror xarakterga egadir. Ular o'mashib qolgan tartib kuchi bilan saqlanib kelayotgan oddiy rasm-odat va an'anadan shu jihati bilan farq qiladilarki, inson qanday yashamog'i va xatti-harakat qilmog'i lozim, degan tasawurlar shaklida g'oyaviy asosga ega bo'ladilar.[2]

Axloqiy tafakkur taraqqiyotida Xitoy mutafakkiri Konfutsiyning qarashlari muhim o'rin tutadi. Uning ta'limotining ta'siri nafaqat Xitoy, balki boshqa mamlakatlarda ham yaqqol sezilgan. 1988-yilda Xalqaro Nobel mukofotining Parijdagi yig'ilishi Murojaatnomasida insoniyat XXI asrda yashab qolishini istasa, 25 asr ilgari yashab ijod etgan Konfutsiyning donishmandligidan yaxshi xabardor bo'lmog'i darkor2 degan e'tirofdan ham buni anglash mumkin

Falsafa va axloq masalasi bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan muhim sohalar bo'lib, insonning to'g'ri va adolatli yashashini tushunishga intiladi. Falsafa, umumiy ma'noda, mavjudlik, bilim, axloq, estetika va dunyo tartibini o'rganish bilan shug'ullanadi. Axloq esa, odamlarning yaxshi va yomon, to'g'ri va noto'g'ri, adolatli va adolatsiz ishlar qilishlarini belgilovchi printsiplar va tamoyillarga asoslanadi.

Falsafa va axloqning o'zaro bog'liqligi



Falsafaning bir bo'lagi sifatida axloq, insonning qanday yashashini, qanday prinsiplar asosida harakat qilishini va hayotda qanday maqsadlar qo'yishini o'rganadi. Insonning axloqiy qarorlari uning dunyoqarashiga, ya'ni falsafiy yondashuviga bog'liq bo'lishi mumkin. Shuning uchun falsafiy qarashlar axloqiy baholashga va ularning amaliy natijalariga ta'sir qiladi.

Axloqiy fazilatlar – insonni yaxshilikka chorlaydigan, yomonlikdan qaytaradigan axloqiy qarashlarning doimiy odati, amaliy faoliyatga aylanganini bildiradigan tushuncha. U insoniy axloq namunalarini o'zida mujassam etadi va ma'naviyatning o'zagini tashkil etadi. Ma'lumki, Sharq xalqlarining madaniyati, falsafasi, dunyoqarashida insondagi Axloqiy fazilatlar qadimdan ulug'lab kelingan. Shu ma'noda, Sharq ijtimoiy fikri va adabiyotini axloqiy fazilatlarlar qomusi deyish mumkin. Sharq mutafakkirlari – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Muhammad Muso Xorazmiy, Rudakiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Hofiz Sheroziy, Fuzuliy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar axloqiy fazilatlarlarni o'z ilmiy va ijodiy faoliyatlarining yetakchi mavzusi deb bilganlar.[4]

Axloqiy fazilatlar orasida adolatlilik, bag'rikenglik, bosiqlik, vazminlik, vafodorlik, vatanparvarlik, vijdonlilik, go'zallik, diyonatlilik, dilbarlik, donolik, jasurlik, javonmardlik, ziyraklik, zebolik, zakovatlilik, zukkolik, ibolilik, ilmsevarlik, intizomlilik, ishchanlik, iltifotlilik, iffatlilik, kamtarinlik, kamarbastalik, kechirimlilik, latofatlilik, lafzi halollik, matonatlilik, muruvvatlilik, mehr-oqibatlilik, mehribonlik, mehnatsevarlik, mo'tadillik, nafosatlilik, odillik, orastalilik, olijanoblik, oliyhimmatlik, ochiqqo'llik, rostgo'ylik, rahm-shafqatlilik, sabr- bardoshlilik, saxovatpeshalik, sadoqatlilik, samimiylik, tavozelik, teran fikrlilik, talabchanlik, tejamkorlik, ulug'vorlik, fozillik, fidoiylilik, farosatlilik, xushmuomalalik, xushfe'llik, qanoatlilik, chidamlilik, shijoatlilik, shirinsuxanlik, o'ktamlik, qanoatlilik, g'ayratlilik, g'azabni jilovlash, haqqoniylik, halimlik, halollik, hayolilik, hojat barorlik kabi xislatlar insonni ulug'laydi, yuksaltiradi, jamiyatdagi munosabatlarni ham mukammallashtiradi. Xalqimiz ana shunday axloqiy fazilatlarlar asosida o'zining betakror ma'naviy qiyofasiga ega bo'lib keladi. Mustaqillik yillarida bu fazilatlar yangicha ma'no-mazmun bilan boyib, yuksak ma'naviy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biriga aylanmoqda.

Falsafada axloqiy masalalarni turlicha yondashuvlar orqali tahlil qilish mumkin. Ba'zi asosiy yondashuvlar:

1. Utilitarizm (Maxfiylik va umumiy foyda)

Utilitarizm, asosan, eng ko'p odamlar uchun eng ko'p baxtni yaratishga intiladi. Bu yondashuvga ko'ra, har qanday axloqiy qaror yoki harakatning to'g'riligi uning natijasiga, ya'ni eng katta umumiy baxtni yaratishga qaratilganligiga bog'liq.

2. Deontologiya (Majburiyatga asoslangan axloq)

Immanuel KANTning deontologik axloqiy yondashuvi, axloqiy qarorlar faqat ularning natijalaridan kelib chiqmasdan, balki ma'lum bir prinsip yoki majburiyatga asoslanishi kerakligini ta'kidlaydi. Masalan, "yolg'on gapirish" har doim noto'g'ri, hatto agar u baxtli natijalarga olib keladigan bo'lsa ham.

3. Fazilat (Aristotelizm)



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Aristotelning fazilatga asoslangan axloqiy tizimi, insonni to'liq baxtga erishish uchun o'z ichki fazilatlarini rivojlantirishga undaydi. Bu tizimda axloqiylik, zarur bo'lgan fazilatlarni - masalan, jasorat, odil, sabr-toqat - rivojlantirishga qaratilgan.

4. **Virtuoz (Gumanizm va empatiya)**

Bu yondashuv, har bir insonning o'z ichki qiymatiga va huquqlariga hurmat ko'rsatishni, boshqalarni tushunish va ularga nisbatan mehr-oqibatni ta'minlashni ta'kidlaydi.

Axloqiy savollar va falsafiy yondashuvlar nafaqat individual darajada, balki jamiyatda ham muhim rol o'ynaydi. Yaxshi axloqiy tamoyillarni ishlab chiqish va qo'llash, adolatli va muvozanatli jamiyat yaratishga yordam beradi. Bu masalalar, hukumatlar, qonunlar, inson huquqlari, ijtimoiy adolat va iqtisodiy tengsizlikni hal qilishda markaziy ahamiyatga ega. Shuningdek, zamonaviy falsafiy axloqiy masalalar (masalan, bioetika, ekologik axloq, sun'iy intellektning axloqi) yangi texnologiyalar va ilm-fan rivojlanishi bilan ham yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Shunday qilib, falsafa va axloq masalalari, insoniyatning yaxshi yashashini ta'minlash uchun o'zaro aloqada bo'lgan va doimiy ravishda takomillashib boradigan sohalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. FALSAFA Matbua Ahmedova umumiy tahriri ostida O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI NASHRIYOTI TOSHKENT – 2006
2. https://renessans-edu.uz/files/books/2023-12-06-07-30-47_5a48ece27e87a7666aae57e4ffe7de98.pdf
3. <https://oyina.uz/uz/article/327>
4. <https://oyina.uz/uz/teahause/1326>